



BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QUVCHILARI QIZIQISHINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Abduvaliyeva N.A

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD)

nodiraxonabduvaliyeva@gmail.com ORSID ID 0000-0002-9824-4622

Erqo'ziyeva N.Sh

Farg'ona davlat universiteti magistrantinigoraerqoziyeva26@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda interaktiv metodlarning o'rni, afzalliklari va samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, tajriba-sinov va adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Natijalar interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirganini, mustaqil va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirganini hamda dars jarayonining sifatini kuchaytirganini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, interaktiv metod, motivatsiya, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi faolligi, savodxonlik, nutq, kreativ ta'lim, hamkorlikda o'qitish, darsliklar, o'qituvchi, o'quvchi.*

Abstract: *This article analyzes the role, advantages and effectiveness of interactive methods in increasing the interest of primary school students in the learning process on a scientific basis. The research used observation, interview, experimental testing and literature review methods. The results showed that interactive methods increased student activity, formed independent and critical thinking competencies, and improved the quality of the teaching process.*

Keywords: *education system, interactive method, motivation, primary education, student activity, literacy, speech, creative education, collaborative learning, textbooks, teacher, student.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim sifatiga bo'lgan talab yanada oshib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nutq madaniyati, mustaqil fikrlashi va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Ushbu videoselektorda prezidentimiz quyidagi fikrni aytib o'tdi. "Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq"³¹. – Shu bois yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom,

³¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi



bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur. Prezidentimizning ushbu nutqida asosiy fikr shuki, har qanday davlatning taraqqiyoti avvalo sog'lom, bilimli va fikrlay oladigan yosh avlodga tayanadi. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun sifatli ta'lim, sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratish eng ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Ona tili fani boshlang'ich ta'limning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning savodxonligini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda grammatik bilimlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning qiziqishini shakllantirish ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun Ona tili fanini o'qitishda faqat nazariy qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi metodlardan foydalanish zarur. Interaktiv metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, faolligini, qiziqishini oshiradi va mavzuni anglash jarayonini osonlashtiradi. Kreativ va interaktiv yondashuvlar o'quvchilarda so'zlarni to'g'ri qo'llash, grammatik birliklarni farqlash, fikrni aniq ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday metodlar orqali ta'lim jarayoni qiziqarli, jonli va samarali kechadi. Shu sababli, mazkur maqolada dars jarayonini samarali olib borilishda xizmat qiladigan interaktiv metodlarning o'рни, qo'llanilishi va uning o'quvchilar bilimiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, til birliklarining mazmun-mohiyatini ongli o'zlashtirish va ularni amaliy nutq jarayonida to'g'ri qo'llash kompetensiyasini rivojlantirishdir. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, faolligi, mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvi zamon talabiga aylangan. Bolaning qiziqishini shakllantirish va uni darsga jalb etishning eng samarali usullaridan biri — interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar ta'lim jarayonini o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorligida tashkil etadi, o'quvchining mustaqil izlanish, fikr bildirish va faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar tez zerikuvchan, harakatchan bo'lgani uchun darsni faollikni ta'minlaydigan metodlar asosida tashkil etish zarur. Bu orqali ular qiziqish ortadi, bilimlarni ongli ravishda egallash tezlashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi. Harakatga moyil, o'yin orqali tez o'rganadigan, e'tibori tez chalg'iydigan, rang-barang, qiziqarli faoliyatni talab qiladigan guruh hisoblanadi. Shuning uchun interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Interaktiv metodlar o'quvchini bilim oluvchi ob'ekt emas, balki bilimni yaratishda faol ishtirok etuvchi sub'ekt darajasiga olib chiqadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli oshiradi.



Boshlang'ich sinf darsliklarida, shu jumladan Novda 2023 darsliklarida ham interaktiv, ijodiy va samarali metodlar keng qo'llanilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda dars jarayonini qiziqarli va jonli tashkil etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, zamonaviy darsliklar pedagoglarga darsni turli metodlar orqali samarali tashkil etish va o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish imkonini beradi. Hozir bir nechta yangicha metodlarga namunalar ko'rib chiqamiz :

1. "Rangli hikoya" topshirig'i

Maqsad: So'z boyligini oshirish, matn tuza olish, gaplarni bog'lash kompetensiyasini rivojlantirish.

Topshiriq:

O'quvchilarga 5 ta tasodifiy rang nomini bering (masalan: ko'k, sariq, qizil, binafsha, yashil).

Har bir rang ishtirok etadigan mini-hikoya tuzishlari kerak.

Shart: hikoya mantiqli, tasviriy va mazmunli bo'lsin.

Misol:

"Yashil barglar orasida uchib yurgan sariq kapalak ko'k osmonga qarab ko'tarildi..."

2. "Rolga kirib gaplashamiz!"

Maqsad: Og'zaki nutq, muloqot, dialog tuzish kompetensiyasini mustahkamlash.

Topshiriq:

O'quvchilar 2-3 kishilik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga bir rol beriladi:

- Do'kondor va xaridor
- O'qituvchi va o'quvchi
- Sayyoh va gid
- Qarindoshlar suhbatlashmoqda
- Doktor va bemor

Shu rolda 1-2 daqiqalik dialog tuzib, sahnalashtirib berishadi.

3. "So'zlardan she'r yasang"

Maqsad: Til sezgirligi, ritm va ohangni his qilish, ijodiy yozma nutqni rivojlantirish.

Topshiriq:

3-5 ta so'z beriladi (masalan: quyosh, yo'l, qush, orzu).

Ulardan foydalanib, to'rt misralik kichik she'r yarating.

4. "Tasvirni so'z bilan chizing"

Maqsad: Tasvirlash ko'nikmasini oshirish, so'z boyligini kengaytirish.

Topshiriq:

O'quvchilarga bir rasm ko'rsatiladi (tabiat, hayvon, odam, vaziyat).

Ular rasmni ko'rmaydigan tengdoshiga og'zaki tasvir berib, tasvir asosida u yodda tasavvur qiladi.

Keyin rasm ochilib, qanchalik to'g'ri tasvirlanganini solishtiriladi.



5. "10 so'zdan hikoya"

Maqsad: Minimal so'z bilan aniq va lo'nda fikr ifodalashni o'rgatish.

Topshiriq:

O'quvchi atigi 10 ta so'z ishlatib to'liq hikoya yaratadi.

Masalan: "Bugun men kutmagan mehmon keldi, lekin juda quvondim."

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida ta'riflangan beshta interaktiv metod ("Rangli hikoya", "Rolga kirib gaplashamiz", "So'zlardan she'r yasang", "Tasvirni so'z bilan chizing", "10 so'zdan hikoya" kabi) boshlang'ich sinf o'quvchilarining til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi kuzatildi. Har bir metod o'ziga xos pedagogik vazifani bajaradi va o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

1. "Rangli hikoya" topshirig'i orqali o'quvchilar so'z boyligini oshirdi, gaplarni mantiqiy bog'lash va hikoya tuzish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ranglar bilan bog'liq oddiy matnlarni tuzish orqali ijodiy fikrlash va mantiqiy tafakkur qobiliyatini mustahkamlashdi. Ushbu metod o'quvchilarning fantaziyasini rag'batlantiradi va til sezgirligini oshiradi.

2. "Rolga kirib gaplashamiz" metodi orqali o'quvchilar og'zaki nutq va muloqot kompetensiyalarini mustahkamlashdi. Guruhdagi sahnalashtirilgan dialoglar o'quvchilarda suhbat qoidalarini, nutqning ohang va intonatsiyasini anglash, fikrni tartib bilan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu metod shuningdek, o'quvchilarni ijtimoiy va hamkorlik ko'nikmalariga o'rgatadi.

3. "So'zlardan she'r yasang" topshirig'i orqali o'quvchilar til sezgirligi va ritmni his qilish imkoniga ega bo'ldi. 3-5 ta so'zdan she'r yaratish, qisqa va aniq fikr ifodalash, ijodiy yozma nutqni shakllantirishda muhim bo'ldi. Natijada o'quvchilarda lug'at boyligi kengaydi, so'zlarni turli kontekstlarda ishlatish qobiliyati rivojlandi.

4. "Tasvirni so'z bilan chizing" metodi esa og'zaki tasvirlash va tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. O'quvchilar rasmni so'z bilan izohlash orqali diqqat, xotira va tasavvur ko'nikmalarini mustahkamlashdi. Shu bilan birga, ularning muloqot va tinglash qobiliyatlari ham yaxshilandi.

5. "10 so'zdan hikoya" topshirig'i o'quvchilarda minimal so'z bilan aniq fikr ifodalashni o'rgatdi. Bu metod o'quvchilarning lo'ndalik va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda samarali bo'ldi.

XULOSA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Rangli hikoya", "Rolga kirib gaplashamiz", "So'zlardan she'r yasang", "Tasvirni so'z bilan chizing" va "10 so'zdan hikoya" kabi interaktiv metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'ldi. Shuningdek, interaktiv metodlar yordamida darslar jonli, qiziqarli va samarali kechadi, o'quvchilar faol ishtirok etadi. Masalan, "Rangli hikoya" va "10 so'zdan hikoya" kabi topshiriqlar



o'quvchilarda mantiqiy tafakkur va qisqa, aniq fikr ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. "Rolga kirib gaplashamiz" metodi esa og'zaki nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijtimoiy va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. "So'zlardan she'r yasang" topshirig'i ijodiy yozma nutqni rivojlantiradi va til sezgirlikini oshiradi, "Tasvirni so'z bilan chizing" metodi esa tasavvur va diqqatni kuchaytiradi.

Mazkur metodlarni muntazam qo'llash dars jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'quvchilarning bilimni mustahkam va ongli egallashiga yordam beradi. Interaktiv metodlar o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni yaratishda faol subyekt sifatida ishtirok etishiga undaydi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarni turli interaktiv va ijodiy usullar orqali tashkil etsa, dars samaradorligi oshadi, o'quvchilarning qiziqishi yanada rivojlanadi va ularning nutq madaniyati, til boyligi, fikr ifodalash qobiliyati mustahkamlanadi.

Umuman olganda, interaktiv metodlar yordamida darsni rejalashtirish va olib borish boshlang'ich sinf ta'limida samarali pedagogik yondashuv sifatida o'zini namoyon qiladi. Bu metodlar o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va mavzuni chuqurroq anglashga rag'batlantiradi, shu bilan birga dars jarayonini qiziqarli va jonli qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2023, 15 may). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha nutqi [Videselektor yig'ilishi]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
2. Novda Edutainment. (2023). Ona tili darsliklari 1-4-sinflar uchun. Toshkent, O'zbekiston.
3. Karimova, M. F. (2019). Interaktiv metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish faolligini oshirish. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
4. Rakhimova, L. (2020). Kreativ va innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida. Toshkent: Ta'lim va tarbiya.
5. www.lex.uz
6. www.ziynet.uz